



AVTOMOBIL TERMINOLOGIYASINING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI VA ETIMOLOGIYASI: FREYM YONDASHUVI HAMDA MANBA QATLAMLARI

Mengziyayev Rasul Daminovich,

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali*

Elektron pochta: mengziyayev4801@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada semantik maydon (ma'no sohasi) nazariyasi asosida avtomobil terminologiyasining leksik-semantik tuzilishi yoritiladi. Avvalo, avtomobilga oid birliklar tashqi va ichki qismlar bo'yicha guruhlanib, markaz (yadro) va periferik zonalar nuqtayi nazaridan tavsiflanadi. Freym yondashuvi yordamida "Transport" makromaydoni ichida "Suv", "Yer usti", "Havo" hamda ularning kichik freymlari ("Avtomobil", "Temir yo'l" va b.) strukturasi ko'rsatiladi. Etimologik tahlil ingliz (accelerator, airbag, coolant, spark plug; crank + shaft), fransuz (véhicule → avtomobil), nemis (Watt) va rus (porshen, shatun, val, klapan va h.k.) manbalarini ajratib, qarz so'zlarning salmog'ini asoslaydi; shu bilan birga, asl o'zbek qatlamining funksional roli ko'rsatib beriladi. LSP (maxsus maqsadlar tili) doirasida terminlar kasbiy kommunikatsiyaning ehtiyojlari, so'z-yasash modellari va tematik tasnif (predmet, jarayon, kasb, miqdor, o'lchov, xossa) orqali tizimlashtiriladi. O'zbek avtomobilsozligi konteksti ("O'zavtosanoat" va tarmoqlanish) misolida terminlarning ijtimoiy-texnik reallik bilan uyg'unligi ko'rsatiladi. Tadqiq natijalari terminografiya, tarjima amaliyoti va qiyosiy lingvistika uchun metodik asos beradi.

Kalit so'zlar: semantik maydon (LSM), freym yondashuvi, avtomobil terminologiyasi, tashqi/ichki qismlar, yadro va periferik zona, LSP (maxsus maqsadlar tili), etimologiya, qarz so'zlar, inglizcha manbalar, fransuzcha manbalar, nemischa manbalar, ruscha qatlam, so'z-yasash modellari, tematik tasnif, "O'zavtosanoat".

Tilshunoslikda ma'no sohasi (semantik maydon) ma'lum bir predmet yoki hodisaga aloqador bo'lgan so'zlar majmuasini anglatadi. Semantik soha tarkibidagi birliklar umumiy semantik xususiyatga ega bo'lib, ular ko'pincha avtomobil qismlari, sanoat terminlari, texnik tushunchalar va boshqa mavzularga qarab guruhlanadi. Ma'no sohaslarining aniqlanishi leksik birliklarning ma'nodagi yaqinlik, o'zaro bog'liqlik va funksional aloqadorligini belgilaydi.

Semantik yondashuv asosida avtomobil terminologiyasi ham bir necha guruhlariga bo'linadi. Ingliz tilidagi avtomobilga oid atamalarni misol qilib olaylik: avtomobil tanasining tashqi va ichki qismlari ajratiladi. Tashqi qismlarga quyidagilar kiradi: egzoz trubkasi (dvigateldan chiqayotgan gaz yoki bug'ni tashuvchi quvur), qanot (g'ildirak atrofiga o'rnatiladigan himoya qismi), yoqilg'i to'ldirish qopqog'i, panjara (radiatorni himoya qiluvchi qopqoq), kapot (dvigatelni yomg'ir yoki quyoshdan saqlaydigan yuqori qopqoq). Ichki qismlar qatoriga esa havo yostig'i, tormoz pedali, yoqilg'i baki, sham va boshqa terminlar kiradi.



Avtomobil sanoati terminologiyasining etimologik shakllanishini tahlil qilganda, bu soha soʻzlarining koʻpi ingliz tilidan kirib kelgani aniqlanadi. Masalan, “krank mili” atamasi “krank” va “val” soʻzlarining birikmasidan tashkil topgan. “Krank” soʻzining maʼnosi qadimgi inglizcha *cranc* ildiziga borib taqaladi, u “bukilgan, egilgan, oʻralgan” maʼnosini bildirgan. Ingliz tilida bu soʻz 19-asrda “dvigatelni ishga tushirish uchun aylantiriladigan mil” maʼnosida ishlatila boshlagan. Shunday qilib, “krank mili” — bu ichki yonuv dvigatelining asosiy oʻqi boʻlib, unga bogʻlovchi novdalar birlashtiriladi.

Tezlashtiruvchi pedal, xavfsizlik yostiqchasi, debriyaj suyuqligi, sovutish suyuqligi, yoqilgʻi pompasi va uchqun kabi terminlar ham ingliz tilidan kirib kelgan boʻlib, ular texnik mohiyati bilan oʻzbek tilida mustahkam oʻrnashgan. Masalan, *accelerator* — yoqilgʻi sarfini boshqaruvchi pedal; *airbag* — toʻsatdan zarba paytida yoʻlovchini himoya qiluvchi havo yostigʻi; *coolant* — issiqlikni pasaytiruvchi suyuqlik; *spark plug* — yonuvchi aralashmani yoqish uchun moʻljallangan qurilma¹.

Oʻzbek tilida avtomobil sanoatiga oid koʻplab terminlar nemis, fransuz va ingliz tillaridan kirib kelgan. Masalan, vatt atamasi nemis tilidan olingan boʻlib, “elektr quvvat miqdorini oʻlchovchi birlik” maʼnosini anglatadi. Avtomobil soʻzi esa fransuzcha *véhicule* (lotincha *vehiculum* — “tashish vositasi”) asosidan olingan boʻlib, “yuk yoki odam tashish uchun moʻljallangan vosita” degan maʼnoni bildiradi. Bu misollar oʻzbek tilidagi avtomobil terminlari koʻp millatli va oʻziga xos etimologik qatlamga ega ekanini koʻrsatadi.

Shunday qilib, avtomobil sanoatiga oid terminlarning kelib chiqishi va ularning semantik taraqqiyotini oʻrganish lingvistik tadqiqotlarda muhim oʻrin tutadi. Bugungi kunda Oʻzbekiston avtomobilsozligi nafaqat ichki bozor, balki xalqaro maydonda ham muvaffaqiyat qozonib, Rossiya, Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Gruziya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Moldova, Turkmaniston va Ukraina kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Respublika avtomobilsozlik korxonalari “Oʻzavtosanoat” davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga birlashtirilgan. Ushbu kompaniya 2004-yil 23-avgustdagi Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan tashkil etilgan boʻlib, avtomobil sanoatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, investitsiyalarni jalb etish hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

¹ Задорожный Н.Н., Шор Г.А. Термины и особенности их перевода в сфере автомобилестроения на английском языке. // Научно-практический электронный журнал *Оригинальные исследования (ОРИС)*. № 12, 2019. – С. 58–62.



Shuningdek, kompaniya sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnologik qayta jihozlash, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlikda avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Bu jarayonlarda malakali kadrlar tayyorlash, muhandislik salohiyatini oshirish ham muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda 2009-yilda Toshkent shahrida "Politecnico di Torino" universiteti tashkil etildi va u yerda avtomobilsozlik, texnologiya, dizayn, energetika va axborot-kommunikatsiya sohalarida yosh mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda "O'zavtosanoat" tarkibida qirqdan ortiq zamonaviy korxonalar faoliyat yuritadi. Mahalliy avtomobilsozlik tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining yetakchi sohasiga aylangan bo'lib, bu Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusining samarali natijasidir.

So'zlarning etimologik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu tadqiqotda o'zbek tilida avtomobil sanoatiga oid atamalarning tarixiy rivojlanishi tahlil qilindi. Bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlar nisbatan kam bo'lsa-da, ushbu tadqiqot o'zbek tilshunosligida yangi yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Avtomobil sanoatiga oid so'zlarni ikki katta guruhga ajratish mumkin:

- a) asl o'zbek so'zlari;
- b) qarz so'zlar.

Leksik-semantik jihatdan qaraganda, avtomobil terminologiyasida qarz so'zlar salmoqli o'rin egallaydi. Masalan, "qism", "dastgoh", "jarayon", "tajriba", "sinov", "chizma", "xossa", "omborxonalar" kabi terminlar xalqaro foydalanishdagi texnik so'zlar qatoriga kiradi. O'zbek tilida avtomobil qismlari ichki va tashqi bo'limlarga bo'linadi. Ichki qismlar — *o'rindiq, gaz pedali, havo yostig'i, kabina chirog'i* va hokazolar; tashqi qismlar esa *g'ildirak, oyna, eshik, chap va o'ng qanot* kabi atamalardir².

Terminlar yasalishi jihatidan ular ikki manbaga tayangan:

- a) xalqaro terminlar — ko'plab tillarda bir xilda qo'llanadigan so'zlar;
- b) rus tilidan kirib kelgan terminlar.

Xalqaro terminlarga энергия (lotincha *energia*, yunoncha *energeia* — "faol kuch"), karbyurator (fransuzcha *carburateur* — "yoqilg'ini aralashtiruvchi qurilma"), analog, etalon, entropiya, bolt kabi so'zlar kiradi. Ularning ayrimlari XVI–XIX asrlarda Yevropa tillarida shakllangan va o'zbek tiliga texnik soha orqali kirib kelgan.

² *Mashina mexanizmlar nazariyasi*. Elektron resurs: <https://aim.uz/referaty/356-mashinostroenie-referaty/24970>



Rus tili ta'siri esa o'zbek avtomobil terminologiyasida ayniqsa kuchli bo'lgan. Masalan, porshen, shatun, val, shayba, klapan, gayka, rez'ba, ryuchag, benzobak, tormoz singari atamalar rus tili orqali kirgan va bugungi kunda faol ishlatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi avtomobil terminlarining etimologik tahlili ularning semantik tizimdagi o'rnini, xalqaro leksik aloqadorlikni va texnik tafakkurning rivojlanish bosqichlarini ochib beradi. Bu esa terminologik tasnif va qiyosiy lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Задорожный Н.Н., Шор Г.А. *Термины и особенности их перевода в сфере автомобилестроения на английском языке.* // Научно-практический электронный журнал *Оригинальные исследования (ОРИС).* № 12, 2019. – С. 58–62.
2. *Car Anatomy: The Basics / How Cars Work? (3D animation).* <https://youtu.be/fPjOWekzeGI>
3. *Car Anatomy: What Are the Parts of a Car?* <https://motorway.co.uk/sell-my-car/guides/what-are-the-parts-of-a-car>
4. *Dunyo mashinasozlik sanoati.* Elektron resurs: <https://aim.uz/referaty/356-mashinostroenie-referaty/1146>
5. Fred Mattson. *Automotive Upholstery & Interior Restoration.* 2017. – 192 p.
6. *Mashina mexanizmlar nazariyasi.* Elektron resurs: <https://aim.uz/referaty/356-mashinostroenie-referaty/24970>